

**USTOZGA EHTIROM**

**Zokirova Dildora**

Buxoro viloyat,  
Shofirkon tuman 38-IDUMning  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

**Shokiri Bahorai Krimzoda**

Buxoro viloyat,  
Shofirkon tumani 53-maktabning  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada O'qituvchi, Ustoz, Murabbiyni kimligi, unga hurmat ehtirom tuyg'ulari yoritilgan. Nechog'lik qadrli ekani, jamiyatdagi o'rni ta'riflangan.*

**Kalit so'zlar:** *O'qituvchi, murabbiy, ustoz, fikrlar, ta'lim, tanqidiy fikrlash, chuqur bilim, ma'naviyat, saviya, dunyoqarash.*

**Annotation:** *In this article, the identity of the Teacher, Teacher, Coach, feelings of respect for him are highlighted. How valuable it is, its place in society is defined.*

**Key words:** *Teacher, coach, mentor, thoughts, education, critical thinking, deep knowledge, spirituality, level, worldview.*

**Аннотация:** В данной статье освещаются личность Учителя, Учителя, Тренера, чувства уважения к нему. Насколько он ценен, определяется его место в обществе.

**Ключевые слова:** Учитель, коуч, наставник, мысли, образование, критическое мышление, глубокие знания, духовность, уровень, мировоззрение.

Jismonan sog'lom, ma'nан yetuk, mustaqil fikrlaydigan, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan barkamol yosh avlodni tarbiyalash hamda voyaga yetkazish uchun mamlakatimizda keng ko'lamlı ishlar olib borilmoqda. Jumladan bugungi kunda Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich tomonidan O'qituvchi, murabbiylar juda ulug'lanmoqda. Bundan ko'rindiki, qachonki o'qituvchini, ustozni ulug'lasakkina bizning Mamlakatimiz rivojlanadi, o'sadi, dunyo tan oladi. O'qituvchilik kasbining ham o'z mashaqqati-yu, qiyinchiligi bordir. Xalqimizda "Ustoz otangdek ulug'" — degan hikmat bejiz aytilmaydi, bu hikmatli so'zda olam-olam ma'no bor. Hatto otani quyoshga qiyos etamiz, ko'klarga ko'tarib maqtaymiz. Ammo otaday ulug` deb nisbat beriluvchi inson bor, bu-ustozdir! Haqiqatdan, ota-onaseni voyaga yetkazadi, ustoz esa unib-o'sishing, kamolatga erishing, ilm-ma'rifat cho'qqilarini zabt etishinga yo'l ochadi. O'z umrini, qalb qo'rini, aql-idrokini, tajribasi va bilimini sening yo'lingga sarfsarflaydi. Yutug'ingni ko'rib quvonadi, muvaffaqiyatsizligingdan g'am-andux chekadi. O'qituvchi go'yoki bog'bondir. U

tarbiyalab o'stirgan nihollarning hosili qanchadan-qancha avlodlarni bahramand qiladi. O'qituvchi va murabbiylarning ma'suliyatli, ammo sharaflı kasblarini bir mash'alaga qiyos etish mumkin. O'tgan ulug'larimiz, ota-bobolarimiz ustoz va muallimlarning haqqini yaxshi bilganlar, ularning qadri nechog'li baland ekanini teran anglaganlar va shunga ko'ra muomala qilganlar. Imomi a'zam Abu Hanifa rahmatullohi alayh shunday deganlari rivoyat qilinadi: «Ustozim Hammodning hurmati uchun uning uyi tomonga oyog'imni uzatmaganman. Holbuki, uning uyi bilan mening uyim orasida yettita ko'cha bor edi. Hammod vafot etgandan so'ng qachon namoz o'qisam har safar albatta ota-onamga qo'shib, unga ham Allohdan mag'firat so'riganman. Nafaqat u ustozim, balki kimdan nimadir o'rgangan bo'lsm yoki kimdir menga nimadir o'rgatgan bo'lsa, albatta, o'sha kishilar uchun ham doim Allohdan mag'firat so'rayman». Ustozlar haqida gap borganda hazrat Alisher Navoiyning bu baytlari beixtiyor yodga tushadi

Haqq yo'lida kim senga bir harf o'qutmish ranj ila,

Aylamat bo'lmashado oning haqin yuz ganj ila.

Shunday ekan o'quvchi yoshlar, talabalar va barchamiz ustozlarni qadrlab, doimo ularga hurmat-ehtirom ko'rsatishimiz lozim. Talabalik odoblariga riosa qilgan shogird haqiqiy ma'noda ustozlarini hurmat qilgan bo'ladi va olayotgan ilmu hunari samarali bo'lib, vujudiga singadi va kelajakda manfaatli bo'ladi.

Ustoz! Shu birgina so`z zamirida olam-olam ma'no va hurmat bordir.

O'qituvchi-sofdil, kamtarin, ma'naviy boy, ahloqan pok shaxsdir. Ularning poyiga guldastalar sochsak, doimo hurmatlarini ado etib, ardoqlasak arzirlidir. Chunki ustozlar butun kuchlarini, aql-idroklarini, bilim va zehnlarini, qalb qo'riyu sehrlarini shogirdlariga baxshida etadigan va etgan zotdir. Ular bizlarga oq-qorani, yaxshiyu-yomonni tanitib, qo'llarimizga ilk bor qalam tutqazib, "Ota", "Ona", "Vatan", "Ezgulik", "Baxt", "Saodat" "Vatanga muhabbat" kabi tushunchalarni yozishga o'rgatgan buyuk zot.

Donolarning aytishicha, elni ma'rifat asraydi. U elni taraqqiy ettirib, ezgu niyati, orzu-umidiga yetkazadi. Demak, ustozlarning zimmasida kelajagi buyuk davlat uchun komil, har tomonlama barkamol, ma'naviy va axloqiy pok vatanparvar, mehnatsevar insonlarni yetkazib berishdek, yuksak vazifa turibdi. O'qituvchi zimmasiga hayot talablariga to'la javob beradigan va o'z zamoniga munosib kishilarni tarbiyalashdek ma'suliyatli vazifa yuklatiladi. Quyosh o'z nuri bilan butun tabiat, borlig'ni jonlantirgani kabi, o'qituvchi, murabbiy ham bor mahorati, ilmi bilan o'quvchi-yoshlar qalbini ilm ziyosi bilan to'ldirishga ahd qilgan buyuk kasb egasidir.

Qiyoq etgim keladi ustozlarim quyoshga,

O'z mehrini-nurini baxsh etadi har yoshga

Istiqlol egalari bo'lmish yosh avlodni bilimli, savodxon, ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom qilib voyaga yetkazishda o'qituvchi-murabbiylarning hissasi benixoya kattadir. Ular berayotgan puxta bilim va ibratli tarbiya katta hayot ostonasida turgan kelajakarning vatanparvar, mehnatsevar hamda hayotda chin inson bo'lishlari,

Vatanimizga, xalqimizga fidoiy va halol xizmat qiladigan insonlar bo`lib yetishishiga ulkan xizmat qiladi. O`qituvchilik-ma'suliyatli va mashaqqatli kasb, og`ir va davomli mehnatni, sabr-toqatni talab qiladigan kasbdir. Insoniyat kamoloti uchun bugun bilimi, iqtidori va hayotini baxsh etgan ustozlarning xizmatlarini hamma zamonlarda ham kishilar hurmatlab, o`zlarini esa e'zozlab kelishgan. O`z davrining mashhur pedagogi Abdulla Avloniy "Har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog`liqdir", deb yozgan edi. Ustoz-murabbiy haqida gapirliganda benihoya ta`lim va tarbiyaga oid fikrlar ham o`z o'ngingda gavdalanadi. Jahon miqyosida XXI asrda ta`lim barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, 2030- yilgacha belgilangan xalqaro ta`lim konsepsiyasida "butun hayot davomida sifatli ta`lim olishga imkoniyat yaratish" dolzarb vazifa sifatida belgilandi . Bu ta`lim tizimida pedagoglar, jumladan, boshlang`ich sinf o`qituvchilari kasbiy faoliyatida metodik tayyorgarlik darajasini oshirish, ijodiy tafakkurini rivojlantirishga yo`naltirilgan texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirdi. Bugungi kunda Respublikamizda ta`lim sohasida o`quvchilarning bilim, ko`nikma va malaka hamda tanqidiy fikrlashini o`stiruvchi individual topshiriqlardan foydalanishning me`yoriy-huquqiy bazasini tubdan takomillashtirish, ilg`or xorijiy tajribalar, ilmiy izlanishlar va texnologiyalarni boshlang`ich ta`lim jarayonlari faoliyatiga integratsiya qilish orqali boshlang`ich sinf o`quvchilarning bilim, ko`nikma va malakalarini o`stirishda juda samarali foydalanib kelinmoqda. 2020-2021-o`quv yilidan joriy etilgan yangi milliy o`quv dasturiga asoslangan darsliklar bunga yaqqol misol bo`la oladi. Milliy o`quv dasturiga asoslangan boshlang`ich sinf darsliklari ilg`or xorijiy tajribalar asosida yaratilgan bo`lib, dunyoda eng zo'r natijalarga erishgan davlatlarning ta`lim jarayonlaridan foydalanilgan. Shu jumladan, Fillandiya, Singapur, Amerika Qo'shma Shtatlari ta`limimi o'rganilib, o'zimizning ta`lim sohamizga ham joriy etilmoqda.

Milliy o`quv dasturi asosida yaratilgan darsliklar sibiralsimon holatda tuzilgan bo`lib, darsliklar nazariyadan ko`ra ko`proq amaliyotga e'tibor qaratilgan. O`quvchilarga tayyor o`quv materiallarini berishga asoslangan yondashuvdan ma'lum darajada voz kechildi. O`quvchilarda kichik izlanuvchilik ko`nikmalarini shakllantirishda kuzatish, tajriba, o`lchashlar, analiz (tahlil) va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash va analogiya kabi ilmiy izlanish metodlaridan keng foydalanilmoqda. O`quvchilar o`rgangan bilim , ko`nikma, malakalarini shunchaki rivojlantirmasdan, ularni hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish kompetensiylarini ham shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga o`quvchining mantiqiy fikrlashini va amaliy ko`nikmalarini shakllantirishga yo`naltirilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, PIRLS) talablariga mos keladigan matnlar bilan ishlashga mo'ljallangan amaliy topshiriqlarni matnlarning mazmuniga moslashtirish o`qituvchi oldidagi asosiy vazifalardan biri sanaladi. Bunda matnni tushunish, tahliliy, tanqidiy fikrlash va munosabat bildirish malakalarini shakllantirish ko`zda tutiladi. Bunday ta`limsohasida ishlashning o`zi bir mashaqqatli ishdir. Bolaga bir harf o`rgatishning o`zi bo`lmaydi, hattoki tanqidiy fikrlash...

Bir qator maktablarda 1- oktabr “O’qituvchi va murabbiylar” kuni yaqinlashayotganligi munosabati bilan adabiy kechalar, she’rxonlik, sinf soati darslarida tadbirlar tashkil qilinmoqda. Shunday kechalardan 38-IDUMda va 53-maktabda tashkl qilindi.



Adabiy kechalarda o’quvchilarining qanchalik zukko, kitobxon ekanligi o’zlarining yod olgan she’riy baytlarda namoyon bo’ldi. Barchaga ko’taringki ruh bag’ishlandi.

Ustoz. Hamma ham bunday nomga ega bo’la olmaydi. Birgina o’qituvchilik emas, barcha kasbda ham “Ustoz-shogird” ananasi mavjud. Shuning uchun Ustoz degan nomni oqlash, sharaflash, xalqning hurmat ehtiromiga sazovor bo’lish kerak. Ustozdek nomni birinchi bo’lib albatta Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich ulug’lamoqdalar.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 06.11.2020 yildagi PQ-4884-sodan
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T., 2016. 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi
3. Mirziyoyev Sh.M."Adabiyot va san'at ma'naviy olamini mustahkamlash poydevoridir". O'zbekiston ijodkor ziyolilari bilan uchrashuvdagi ma'ruza. 2017. 3-avgust.
4. Mirziyoyev Sh.M."O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqiyosda o'rghanish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari". 2018. 7-avgust.
5. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagji PF-4947 sonli Farmoni.